

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2023

6/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

6/3-сан 2023

декабрь

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендируі Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Мавлюда АЧИЛОВА
Нуриддин АЧИЛОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Мехри НАРБАШЕВА
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурулло МАРДОНОВ
Шахсанам МАТУПАЕВА

Лобар МУХТОРОВА
Камаладин МАТЯКУБОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Сайёра РАХМОНОВА
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ
Гулноз ТУРАЕВА
Гулмира ТОЖИБОЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Дилбар ҚАРШИЕВА
Вохид КАРАЕВ
Дилбар ҚОДИРОВА
Ризамат ШОДИЕВ
Абдушукур ШОҒҚОРОВ
Дилфуза ШАББАЗОВА
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРҒАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ

Ikromov X. Axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasini boshqarish sohasida o'qitish usullari	361
Усманова К. Таълим тизимида медиатеكنولوجياларни жорий этиш ҳамда медиатаълимнинг вужудга келишига доир фикрлар тахлили	368
Xodjibolayeva N. Al-Farg' oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari	372
Sayidova M. X. Raqamli texnologiyalarni o'qitishning uslubiy va texnologik ta'minoti	378
Матгазиев Х.М. Роль математическое моделирование при решении механических задач	386
Rasulova T. Mathematical modeling of information technologies and processes, teaching methodology, methodology for creation of training projects	392
Ruzmetova S.T. Advantages of teaching english online and ways of conducting online classes	397

БАСЛАЎЧИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТАРБИЯ

Misirova N. Kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual-shaxsiy sifatlari	403
Botiraliyeva M. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning AKT kompetentligini rivojlantirish modeli	413
Mirazimova M. Oiladagi sog'lom va ma'naviy muhitning bola tarbiyasiga ta'siri	420
Xusenova S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch ma'naviy kompetentsiyalarni shakllantirishda "Tarbiya" fanining ahamiyati	424
Alimqulova R. Nutq madaniyati va uning boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatidagi o'rni	429
Atakov I. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fani o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuv	436
Berdiyeva H. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	446
Ergasheva O. O'quvchi - qizlarda milliy fazilatlarini rivojlantirishda ma'naviy qadriyatlarining o'rni	455
Choriyeva D., Abdiyeva Sh. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bilimlarini rivojlantiruvchi o'yinlar	461
Xayitov L. Bo'lajak defektologlarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish	466
Urakova Sh.K. "Malaka oshirish kurslari tinglovchilarida kreativlik kompetentligini rivojlantirish (Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari faoliyati misolida)	472
Maqsudov U., Abdullayev R. "Tarbiya" fanini o'qitishda O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlarini o'rganishning nazariy asoslari	480
Ibragimova Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga nisbatan mas'uliyatli munosabatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va tamoyillar	486
Yakubova M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyachilarning kasbiy va shaxsiy sifatlari	496
Qosimova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishda o'rta arifmetik qiymatni topishga doir masalalarning o'rni	500
Комолова И. Олий таълим муассасаси талабаларида арт-педагогик тизimini таркиб топтиришнинг педагогик жиҳатларини такомиллаштириш	507
Matupayeva Sh.Z. Sharq mutafakkirlarining imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasi haqida qarashlari	513
Eshmanova N.N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish	517
Каримжанова Д.А. Тараққиёт стратегияси асосида мактабгача таълим ташкилотлари педагог ходимларини тайёрлашнинг назарий масалалари	522
Шербутаева Ш. У. Проведения занятий в дошкольных образовательных организациях по ознакомлению дошкольников с природой	527
Халбаева Г. Механизмы совершенствования процесса подготовки детей к школе	531



SHARQ MUTAFAKKIRLARINING IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING TA'LIM-TARBIYASI HAQIDA QARASHLARI

Matupayeva Sh.Z.

*CHDPU Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası katta o'qituvchi p.f.f.d (PhD)*

Tayanch so'zlar: ta'lim, inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bola, sharq mutafakkir, metodologik, didaktik, jamiyat, tizim, yondashuv, jamoa.

Ключевые слова: образование, инклюзивное образование, ребенок-инвалид, восточный мыслитель, методологический, дидактический, общество, система, подход, команда.

Key words: education, inclusive education, disabled child, eastern thinker, methodological, didactic, society, system, approach, team.

Mavzuning dolzarbligi. Ta'lim sohasida inklyuziv yondashuvning evolyusiyasi jamiyatning nogironlik to'g'risidagi tushunchasi o'zgarishiga asoslangan edi: XX asrning 1960-yillari o'rtasigacha mavjud bo'lgan salomatlik imkoniyati cheklangan odamlarni ajratib qo'yishni nazarda tutuvchi tibbiy model o'rniga XX asrning 1980-yillari o'rtasigacha davom etgan normallashtirish modeli keldi. Bu model salomatlik imkoniyati cheklangan odamlarni jamiyatga integratsiyalashni nazarda tutar edi. Hozirgi vaqtda salomatlik imkoniyati cheklangan bola ta'limidagi to'siqlar va muammolar jamiyat ta'lim tizimining atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlari nomukammalligini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ijtimoiy modelga o'tish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Markaziy Osiyoda bu masala ancha yillardan buyon tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. Olimlar ham, siyosat va jamiyat arboblari, pedagog va talabalar, jamoat uyushmalarining faollari va oddiy fuqarolar ham bu masalaga tobora ko'proq e'tibor bermoqdalar. O'zbekistonda yanada demokratiyani chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishdagi manfaatdor bo'lgan har bir kishi O'zbekiston xalqlarining falsafiy-siyosiy va huquqiy merosini yaxshi bilishi, hamda mutafakkirlar ilgari surgan g'oyalarga murojaat qilishi kerak.

Sharq mutafakkirlari tomonidan XI–XII asrlardayoq milliy pedagogikaning ilmiy didaktik asoslari yaratildi, shaxsning biologik va ijtimoiy mavjudot



ekanligining mohiyati tadqiq etildi hamda asoslab berildi. Bunga ayniqsa o'rta asrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiyning ilmiy ijodiy faoliyatlarining ijodiy ta'siri tufayli erishildi. Sharqning buyuk mutafakkir bobokalonlari ilm rivojining hech bir tomonini chetlab o'tmaganlar. Jumladan ularning ta'lim tarbiyaga oid qarashlari bugungi kunda ham pedagogikaning boy metodologik asosi bo'lib kelmoqda. Ularning nuqtai nazaridan maxsus pedagogikaga oid fikrlar ham chetlab o'tmagan.

Insoniyat ijtimoiy taraqqiyotining turli davrlarida maxsus yordamga mutoj bolalalarga nisbatan munosabat o'ziga xos ravishda amalga oshirib kelingan. O'tmishda bobakalonlarimiz o'zlarining munosib nomlariga ega bo'lgan mutafakkirlar yurtida jamiyatda hech bir insoniyat qatlami nazardan chetda qolmagan. Sharq mutafakkirlarining bola ta'lim tarbiyasi va pedagogikaga oid qarashlari maxsus pedagogikaning mustahkam metodologik asosi bo'la olishi bugungi kunga kelib o'z isbotini topmoqda.

Abu Rayon Muammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) o'sha davrlarda Xorazm poytaxti bo'lgan Kat (Qiyot) sari yaqinidagi Berun qishlog'ida dunyoga keldi. Bolaligidanoq ilm-fanga qiziqdi, hukmdorlarning o'zaro qonli urushlaridan keskin norozi bo'ldi. Beruniy ma'lum muddat xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun saroyida muhim davlat ishlarini bajardi, biroq keyinchalik o'zini butunlay ilmiy-ijodiy ishlarga bag'ishlab, siyosiy faoliyatdan yuz o'girdi. Beruniy xorazmshoh va g'aznaviylar o'rtasidagi ziddiyatlar mohiyatini iste'dodli va mohir siyosatchi sifatida to'g'ri tavsiflab berdi.

Beruniyning fikricha, kishilar o'zlarining zaruriy etijoylarini qondirish uchun uyushgan olda yashash va ishlashga majburlarlar. U odamlarning jamoa bo'lib ishlashning asosiy qoidalari o'zaro yordam, bir-birlari bilan tinch-totuv yashash, umumiy manfaat uchun ishlashga asoslangan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Turli millatga mansub kishilar o'zaro totuvlikda yashaganlaridagina ularning hayoti mazmunli va barakali bo'lishi haqida fikr bildiradi. Beruniy o'zi qarashlarida insonni, uning tafakkurini ulug'lab, shohlar va qonunlar anashu hazrati inson uchun xizmat qilishi hamda uni bosqinchilardan himoya qilishi kerak, degan g'oyalarni ilgari suradi. Shu bilan birga insoniy yashamoqning vositalaridan biri haq va huquqqa rioya qilmoqdir, deb hisoblaydi.

Beruniy sotsiologiyadagi muhim soha ijtimoiy tabaqalashuv haqida ham fikr yuritib, shunday deydi: "Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun (zarur) bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir.



Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar ko'payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tusgan".

Beruniyning fikricha, inson hayvonot olamidan o'zining aqli bilan farqlanadi. Aql insonga Alloh tomonidan ato qilingandir.

Olim insonning olam va jamiyatdagi o'rniga, roliga alohida e'tibor berdi. Jamiyat odamlarning birgalikda faoliyat ko'rsatish ehtiyojidan vujudga kelgan ekan, ular o'zaro yordam asosida faoliyat ko'rsatishlari kerak. Insonning jamiyatdagi faoliyatini ifodalab, ularning mijoz (temperament) va qobiliyatlari turlicha bo'lganligi tufayli, ularning o'z oldilariga qo'yadigan maqsadlari ham turlicha bo'ladi, - ana shundan mehnat taqsimoti kelib chiqqan, deb tushuntirdi. Jamiyatda qaror topgan turli qoida va tartib-intizom va nizom odamlarning o'zaro kelishuvlari natijasida paydo bo'lgandir. Uning fikricha, har qanday olimning faoliyati faqat bir maqsadga - jamiyatga foyda keltirishga qaratilishi kerak. Ilm-fan boylik, shon-shuhrat va soxta hurmat orttirish uchun emas, balki kishiarga tabiat va jamiyatni bilishlari uchun yordam berishi, ularning muskullarini osonlashtirish uchun xizmat qilishi kerak.

Ko'pgina mashhur olimlar bu ta'limotning tarkibiy qismlariga murojaat etib, mazkur muammoning turli-tuman ma'nolarini ilgari surganlar. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga olib keldi va ming yillik falsafaning tarixiga qiziqisni borgan sari oshirib, uni o'rganuvchilar doirasini kengaytirib kelmoqda.

Sharqning eng yorqin mutafakkir yulduzi, g'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiydir. Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Amir Temurning o'g'li Shoxrux Mirzo hukmronligi davrida Hirotida tug'ildi. Uning otasi G'iyosiddin Muammad temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonining ishonchli kishilaridan edi.

Navoiy asarlari ko'pqirralilik xususiyatiga ega bo'lib, ularning mazmunini tasavvuf ta'limoti, axloq-odobga oid pand-nasixatlar, nazm qoidalari, tarixiy voqealar tafsiloti tashkil etadi. Mir Alisher Navoiy o'zining xalqparvarligi bilan doimo xalq farovonligini o'ylab tashvishlangan. Bu kechinmalarini o'z ijodida ham ifodalagan. Jamiyatdagi barcha insonlarni bir xil, teng deb hisoblaganlar. "Maxbub ul-qulub" asarida shunday yozadi:

"Sarvu gulu lola xaridori bor;

O'tinnig dog'i, bozori bor".

Ya'ni, sarvi guli chiroyli bo'lganligi uchun uning xaridorlari ko'p, ammo o'tin ko'rimsiz bo'lsada unga ham zaruriy ehtiyoj bor. Mana shu misralarga maxsus pedagogika nuqtai nazari bilan qaraydigan bo'lsak, sog'lom bolalar va insonlarning jamiyatda o'rni ma'lum, ammo Sunday bo'lsada nogiron-maxsus ehtiyojli bolalar va shaxslarning ham o'z o'rinlari bor. Ular ham jamiyat uchun



nafli. Shuning uchun ham barcha insonlarni tenglikda qaramoq lozim, degan ma'no anglashiladi. Bundan tashqari Alisher Navoiy butun umr o'z xalqing savodli bo'lishiga uringan, ko'p asarlarida o'zining bu g'oyasini ilgari surgan va yurtning kelajagi xalqning ilmi, savodli bo'lishida deb bilgan. Barcha bolalar uchun savod o'rganish kitobi yaratilishiga asos solgan. Shunday qilib, g'azal mulkingning sultoni xazrat Mir Alisher Navoiy ham o'z nuqtai nazari bilan ta'limdagi teglikni ilgari surganlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning barchasi jamiyatni bir butun deb qarab, barcha insonlarni teng deb hisoblaganlar, jumladan, bizning tadqiqot ishimizga oid bo'lgan barcha bolalarni birgalikda o'qitish lozimligiga oid ta'kidlari maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tizimida juda qimmatlidir.

Demak, maxsus ehtiyojli bolalarga ham jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida ta'lim tarbiya berish buyuk Sharq mutafakkirlarining ham diqqat markazidan chetda qolmagan.

Adabiyotlar:

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.
2. Amirsaidova Sh.M. "Maxsus pedagogika fani taraqqiyotida sharq mutafakkiri g'oyalarning o'rni va roli". Ped. fan. nom... diss. – T., 2006.
3. L.R.Muminova, R.Sh.Shomaxmudova, Z.M.Axmedova. "Inklyuziv ta'lim" o'quv qo'llanma. Toshkent, 2019
4. Matupayeva Sh.Z. Teaching elementary teachers to use academic case clusters in the sciences. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853, Vol. 11, Issue 11, November 2022, SJIF 2022 = 8.179
5. Matupayeva Sh.Z. Inklyuziv ta'limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun ijtimoiy ahamiyati. Muqallim 2023. 312-318

РЕЗЮМЕ

Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarning yosh psixologik xususiyatlari keltirilgan. Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiyning imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyasi haqida qarashlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлены юные психологические особенности детей с ограниченными возможностями. Представлены сведения о взглядах восточных мыслителей Абу Райхона Беруни, Абу Насра Фараби, Абу Али ибн Сины, Алишера Навои на образование детей с ограниченными возможностями.

SUMMARY

The article presents the young psychological characteristics of children with disabilities. Information is presented on the views of eastern thinkers Abu Rayon Beruni, Abu Nasr Farabi, Abu Ali ibn Sina, Alisher Navai on the education of children with disabilities.